

28-fevral kuni oltita sayyoradan iborat paradni kuzatish mumkin


Sayyoralar paradi bu noyob astronomik hodisalardan biri bo'lib, bunda 2 va undan ortiq sayyoralar bir to'g'ri chiziqda yoki bir-biriga yaqin burchak masofada joylashadi. Sayyoralar paradini ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruh kichik sayyoralar paradi deb ataladi va unda 4 tagacha sayyoralar qatnashadi. Kichik sayyoralar paradi bir yilda bir marta sodir bo'lishi mumkin. Ikkinchi guruh esa katta sayyoralar paradi deb ataladi, bunda 5 ta yoki undan ortiq sayyoralar bir-biriga yaqin burchak masofaga kelishadi. Ushbu hodisa 18-20 yilda bir marta sodir bo'ladi. Bundan tashqari Quyosh sistemasidagi 8 ta sayyora ishtirokidagi parad ham bo'lishi mumkin, bu noyob astronomik hodisa 170 yilda bir marta sodir bo'ladi.

2026-yil 28-fevral kuni oltita sayyoralaridan iborat parad sodir bo'ladi. Ushbu sayyoralar paradida Quyosh tizimidagi oltita sayyora, ya'ni Merkuriy, Venera, Neptun, Saturn, Uran va Yupiter sayyoralar ishtirok etadi.



28-fevral kuni Quyosh ufqqa botgandan keyin ushbu sayyoralar paradini yurtimizning barcha hududlaridan kuzatish mumkin. Ushbu sayyoralar paradida sayyoralar osmon sohasining chorak qismini egallaydi va paradda ishtirok etadigan sayyoralarni osmonning janubiy-g'arbiy qismidan topishingiz mumkin. Ushbu paradda ishtirok etadigan sayyoralaridan faqat 4 tasini oddiy ko'z bilan ko'rish mumkin holos (bular: Merkuriy, Venera, Saturn va Yupiter), Neptun va Uran sayyorolari esa juda xira bo'lganligi sababli ularni ko'rish uchun maxsus optik uskunalar (teleskop yoki binokl) kerak bo'ladi.

Merkuriy va Venera Quyoshga juda yaqin bo'lganligi sababli ular parad vaqtida ufqqa juda yaqin bo'ladi, bu esa ularni osmonda ko'rish imkoniyatini kamaytiradi. Sayyoralar paradi vaqtida sayyoralarning Yer va Quyoshga nisbatan Quyosh tizimidagi vaziyati quyidagi rasmda keltirilgan.



Rasmda Mars sayyorasi Yerdan qaralganda Quyoshdan avval ufqqa botib ketishini tushunish qiyin emas. Shu sababli Mars sayyorasi bu safar paradda ishtirok etmaydi.

Xullas, 28-fevral kuni Quyosh botgach janubiy-gʻarbiy osmonga qaraganimizda toʻlayotgan yarim Oy va undan uncha uzoqda boʻlmagan Yupiterni topasiz, Uran sayyorasi oddiy koʻz bilan koʻrinmaydi lekin Uran sayyorasi Pleada (Hulkar yulduz toʻdasi) yaqinida boʻladi. Hulkar yulduz toʻdasi qorongʻu tunda oddiy koʻz bilan ham koʻrinadi va osmonda eʼtobingizni tortishiga ishonaman. Saturn, Neptun, Venara va Merkuriy bu paradda bir biriga juda yaqinligi bilan diqqatga sazovor. Bu toʻrtta sayyora Quyosh botgach unga ergashib botishni boshlaydi va shu sababli bu toʻrtta sayyorani osmonda koʻrish uchun gʻarbiy osmon ufqini baland binolar toʻsmaيدigan tepalikdan kuzatish kerak boʻladi.

Koʻpincha ayrim insonlar sayyoralar paradi kabi astronomik hodisalarni yoki boshqa osmon jismlarini inson taqdiri va kelajagi bilan bogʻlashga, turli farazlarga asoslanib bashoratlar qilishga urinadilar. Biroq ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, har qanday astronomik hodisa jumladan sayyoralar paradi ham – inson hayoti, taqdiri yoki kelajagiga hech qanday taʼsir koʻrsatmaydi va ular bilan bogʻliq emas. Bunday hodisalar tabiatning qonuniy va oldindan hisoblab boʻladigan jarayonlari boʻlib, shunchaki noyob va qiziqarli astronomik voqea hisoblanadi. Shu sababli, sayyoralar paradini turli taxmin va xurofotlarga bogʻlash oʻrniga, uni ilmiy jihatdan anglab, osmon goʻzalligidan zavq olib kuzatish maqsadga muvofiqdir.